



Maktabgacha taʼlim muassasalarida farzandlari taʼlim oluvchi ota-onalar uchun maʼlumot

Bollnäs munisipalitetida pedagogik hujjatlarni elektron tarzda tizimlash

Maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyatining asosiy maqsadi har bir bolada rivojlanish va bilim olishni koʻrishdan iborat. Har bir olib borilayotgan faoliyatni tahlil qilish hamda baholash uchun oʻtkazilayotgan faoliyatlarni doimiy ravishda kuzatish va ularni hujjatlashtirish lozimdir. Baholashlar bizga maktabgacha taʼlim muassasalarining faoliyatlari barcha bolalarga rivojlanishlarida imkoniyatlar berish yoki bermasligini tekshirishda yordam beradi.

Bollnäs munisipalitetidagi maktabgacha taʼlim muassasalarida bunday imkoniyat vebga asoslangan Axborot Texnologiyasi (AT) vositasi Unikum dasturi orqali elektron tarzda amalga oshiriladi. Ota-ona sifatida bu dastur orqali maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyati va bolangizning rivojlanishi hamda taʼlim olishini kuzatib borishingiz mumkin. Maktabgacha taʼlim muassasalari hodimlari siz ota-onalar bilan muloqotda Unikum dasturidan foydalanadi.

Odatiy savol va javoblar

Unikum nima?

Unikum elektron platforma boʻlib, u yerda masalan, haftalik xatlar, ovqat-menulari, pedagogik rejalar, bizning va bolalarning baholashlari, maktabgacha taʼlim muassasalari faoliyati boʻyicha qoʻyilgan kundalik fikrlar va hujjatlarni koʻrish mumkin. Bundan tashqari siz yana faoliyatlarning, yaʼni biz qilayotgan ishlarning maktabgacha taʼlim dasturiga qanday bogʻlanganligini koʻrishingiz mumkin. Siz bolangiz va maktab faoliyatini rasmlar, hujjatlar va turli fikrlar orqali kuzatib borishingiz mumkin.

Maktabgacha taʼlim muassasalaridan bolangizni tashlash va olib ketishda odatdagidek ogʻzaki tarzda ham maʼlumotlar olasiz. Uyda Unikumdan foydalanishingiz, oʻqishingiz va rasmlar

koʻrishingiz mumkin, yana farzandingiz kun davomida maktabda nimalar bilan shugʻullanganligi haqida ham gapirib berishi mumkin.

Bolam va men haqidagi maʼlumotlarni kim koʻrishi mumkin?

Ota-ona sifatida bolangizning sinfida oʻquvchi boshqa bolalar, ularning ota-onalari hamda butun sinfga tegishli boshqa maʼlumotlarni koʻrishingiz mumkin.

Faqat siz- ota-ona sifatida oʻqituvchilar sizning bolangizning oʻqishi va rivojlanishi haqidagi maʼlumotlarni koʻrishingiz mumkin. Hech qaysi ota-ona oʻz farzandidan tashqari boshqa bolalarning oʻqishi va rivojlanishi haqidagi maʼlumotlarni koʻra olmaydi.

Unikumda mavjud hujjatlar faqat vakolati bor insonlar uchundir. U yerdagi rasmlar va hujjatlarni boshqa maqsadda, masalan ijtimoiy axborot vositalari Facebook va Instagramga qoʻyish uchun nusxa olishingiz va ulardan foydalanishingiz mumkin emas.

Maʼlumotlar havfsiz saqlanadimi?

Maʼlumotlar internet banklar kabi internet orqali shifrlangan.

Barcha ota-onalar Unikomga kirish uchun elektron-tasdiqlash (legitimation)/BankID dan foydalanishlari kerak.

Axborotning saqlanadigan serverlari yaxshi muhofaza qilinadigan va himoyalangan operatsion markazlarda joylashgan. Ushbu tizimlar professional ishlaydigan xodimlar tomonidan har kuni tekshiriladi va maʼlumotlar xavfsiz holatda

saqlanadi. Tizimlar xavfsizlik devorlari bilan himoyalangan.

Nega shaxsiy raqamdan foydalaniladi?

Xavfsizlik va yaxlitlik uchun talablar yuqori boʻlib, shuning uchun shaxsiy raqamdan, masalan, banklar yoki sugʻurta fondi internet xizmatlari kabi, foydalaniladi. Bugungi kunda mamlakatdagi barcha maktabgacha taʼlim muassasalarida va maktablarda shaxsiy raqamlardan bogʻcha va maktabga borgan oʻquvchilarni aniqlash, shuningdek, ularning ota-onalarini toʻgʻri aniqlashda foydalaniladi. Shaxsiy raqam bolaning maʼlumoti uning oʻzining ota-onasi bilan bogʻlanishini taʼminlashda kerakdir.

Unikumdagi maʼlumotlar shaxsiy maʼlumotlarni oʻz ichiga olganligi tufayli, Bollnäs munisipaliteti shaxsiy maʼlumotlar qonuniga (PuL) va yaqinda kuchga kiruvchi Maʼlumotlarni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunga rioya qiladi.

Bolam haqidagi maʼlumotlar qancha vaqtgacha saqlanadi?

Bolangiz haqidagi hujjatlar bolaning maktabda qolish davrigacha mavjud boʻladi. Munisipalitet ichida bolangiz boshqa maktabga oʻtsa, uning hujjatlari oʻsha maktabga taqdim etiladi.

Rozilik kerakmi?

Unikum Bollnäs munisipaliteti barcha bolalarning oʻqishi va rivojlanishini hujjatlashtirish uchun foydalanish madsadida tanlagan vosita boʻlganligi uchun ota-onalarning bunda roziligi kerak boʻlmaydi. Biz bu dastur orqali qogʻoz va qalam oʻrniga elektron xizmatidan foydalanamiz.

Oʻqituvchilar bolangizning oʻz hujjatlariga uning oʻziga tegishli rasmlarni qoʻyishadi. Agar siz bolangizning rasmlarini boshqa ota-onalar ham koʻra oladigan umumiy boʻlimdagi hujjatlarga qoʻyishni xohlasangiz, u holda sizning roziligingiz kerak boʻladi. Siz maktabgacha taʼlim muassasalari xodimlari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar, internet va bosmada audio, kino va tasvirlarni joylashtirish boʻyicha mahsus blankani toʻldirish orqali roziligingizni berishingiz mumkin boʻladi.

Bilish muhim

Umumiy hujjat

Oʻquv hujjatlari umumiy hujjat hisoblanadi. Ochiqlik printsipiga koʻra, munisipalitetda mavjud umumiy

hujjatlarini soʻrab olish mumkin. Agar kimdir taʼlim hujjatlarini talab qilsa, konfidentsiallik tekshiruvi oʻtkazilib, agar nozik maʼlumotlar boʻlsa, ular hujjatni berishdan oldin oʻchiriladi.

Nozik maʼlumotlar

Pedagogik hujjatlar muassasa hodimlari orqali yoziladi. Hujjatlarda yoziluvchi maʼlumotlar nozik maʼlumotlarni oʻz ichiga olmasligi lozim.

Odob va axloq – erkin matnlarda amal qilish muhim!

Elektron hujjatlarda erkin matnlarga ruhsat beriladi. Erkin matnlarda biror insonning shaxsiy xususiyatlari haqida yozish va ularga baho berish mumkin emas. Bundan tashqari haqoratli soʻzlarni ishlatish ham man etiladi. Bu qoidalar Unikum yoki boshqa elektron vositalaridan foydalanuvchi barcha insonlarga tegishlidir.

Boshqa masalalar

Agar pedagogik hujjatlar boʻyicha yana boshqa savollaringiz boʻlsa, u holda bolangizning maktab hodimlari yoki maktab/muassasa boshligʻiga murojat qilishingiz mumkin.

Bir zumda boshlang!

Siz Unikumdan kompyuterda, yana smartfonlar yoki planshetlar uchun ilovalar orqali foydalanishingiz mumkin.

<https://start.unikum.net/> manziliga kiring yoki smartfon yoki planshetga "Unikum" ilovasini yuklab oling. U erda "Kirish uchun boshqa yoʻl" ni tanlang va Bollnäs munisipalitetini tanlang. BankID / Mobile BankID-dan foydalanib dasturga kiring. Oʻqituvchilar sizga ota-ona sifatida yoki bolangiz haqida biror narsa yozishsa, bu haqida ilova orqali eslatma olasiz.

www.unikum.net saytida bu haqida koʻproq maʼlumot olishingiz, maʼlumotli filmlarni tomosha qilishingiz va ushbu vosita haqida boshqa maktabgacha taʼlim muassasalaridagi ota-onalarning fikrlarini oʻqishingiz mumkin.

Yordam haqida maʼlumotlar, maʼlumotli filmlar va boshqalarni bizning veb-saytimizda topishingiz mumkin: <http://www.bollnas.se/index.php/unikum>

Ushbu yangi vosita orqali sizlar bilan unumli oʻquv jarayonini kutib qolamiz!